

**INGLIZ TILI BO'YICHA ONLAYN TA'LIM
XIZMATLARINI TAQDIM ETISH
TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA**

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Nodirabegim MFY, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 262-uy manzili bo'yicha joylashgan **“BANANA SCHOOL” MChJ** (ATB “Toshkent Shahar filiali «Infin bank” yoki tegishli bank rekvizitlari asosida), STIR 312910284, Davlat guvohnomasi raqami № 3172812, bundan keyin **“Xizmat ko'rsatuvchi”** deb yuritiladi; ushbu ommaviy ofertani akseptlovchi jismoniy shaxslarga (kelgusida **“Foydalanuvchi”**) ushbu ofertada aks etgan shartlar asosida ingliz tili bo'yicha o'quv materiallarini onlayn taqdim etish va masofaviy ta'lim xizmatlarini (bundan keyin **“Onlayn kurs”**) yoki **“Xizmatlar”**) taqdim etish shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu shartnoma Xizmat ko'rsatuvchining ommaviy ofertasi bo'lib, onlayn platformada (veb-sayt, mobil ilova yoki yopiq guruhlar) ro'yxatdan o'tish, undagi xizmatlar va o'quv materiallaridan foydalanish tartibini belgilaydi.

1.3. Foydalanuvchining platformada ro'yxatdan o'tishi yoki xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishi mazkur ofertani to'liq va shartsiz qabul qilganligini (**Aksept**) anglatadi. Ro'yxatdan o'tgan yoki to'lov o'tkazilgan paytdan boshlab, Foydalanuvchi ushbu shartnoma shartlarini qabul qilgan va Tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

1.4. Xizmat ko'rsatuvchi darslarni guruh (12 kishigacha) yoki individual formatda, onlayn aloqa vositalari yordamida tashkil etadi. Bir kalendar oyidagi darslar soni kalendar sikli va rasmiy bayram kunlaridan kelib chiqib 11 tadan 13 tagacha bo'lishi mumkin.

1.5. Ushbu oferta cheklanmagan muddatga tuziladi va Xizmat ko'rsatuvchi istalgan vaqtda unga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. O'zgarishlar platformada e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

2-BOB. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ushbu Ommaviy ofertada qo'llaniladigan atamalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

**ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА О
ПРЕДОСТАВЛЕНИИ УСЛУГ ОНЛАЙН-
ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

ГЛАВА 1. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ

1.1. **ООО «BANANA SCHOOL»**, расположенное по адресу: Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, МСГ Нодирабегим, улица Буюк Ипак Йули, дом 262 (расчетный счет в «Infin bank», Ташкентский городской филиал или согласно соответствующим банковским реквизитам), ИНН 312910284, Номер государственного свидетельства № 3172812, именуемое в дальнейшем **«Исполнитель»**; устанавливает настоящие условия публичной оферты о предоставлении учебных материалов по английскому языку в режиме онлайн и оказании услуг дистанционного обучения (далее — **«Онлайн-курс»** или **«Услуги»**) физическим лицам, акцептующим данную публичную оферту (далее — **«Пользователь»**).

1.2. Настоящий договор является публичной офертой Исполнителя и определяет порядок регистрации на онлайн-платформе (веб-сайт, мобильное приложение или закрытые группы), а также порядок использования услуг и учебных материалов.

1.3. Регистрация Пользователя на платформе или осуществление оплаты за услуги означает полное и безоговорочное принятие (**Акцепт**) данной оферты Пользователем. С момента регистрации или осуществления оплаты Пользователь считается принявшим условия настоящего договора, и договор между Сторонами считается заключенным.

1.4. Исполнитель организует занятия в групповом (до 12 человек) или индивидуальном формате с использованием средств онлайн-связи. Количество занятий в одном календарном месяце может составлять от 11 до 13 в зависимости от календарного цикла и официальных праздничных дней.

1.5. Настоящая оферта заключается на неопределенный срок, и Исполнитель имеет право в любое время вносить в нее изменения в одностороннем порядке. Изменения вступают в силу с момента их публикации на платформе.

ГЛАВА 2. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

Термины, используемые в настоящей Публичной оферте, имеют следующие значения:

2.1. **Aksept** – Foydalanuvchi tomonidan ushbu Oferta shartlarini to‘liq va shartsiz qabul qilinishi. Platformada ro‘yxatdan o‘tish yoki xizmatlar uchun dastlabki to‘lovni amalga oshirish aksept hisoblanadi.

2.2. **Onlayn platforma (Platforma)** – Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan masofaviy ta‘lim berish uchun foydalaniladigan dasturiy ta‘minot, veb-sayt, mobil ilova yoki videokonferensaloqa tizimlari (Zoom, Google Meet, Telegram va h.k.).

2.3. **Shaxsiy kabinet** – Platformada Foydalanuvchi uchun ajratilgan, uning shaxsiy ma‘lumotlari, darslar jadvali va o‘quv materiallariga kirish huquqini ta‘minlaydigan yopiq qism.

2.4. **Guruh darslari** – O‘quv rejasi asosida, bir vaqtning o‘zida 6 (o‘n ikki) nafargacha Foydalanuvchi ishtirokida onlayn tarzda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar formati.

2.5. **Individual darslar** – Bir nafar Foydalanuvchi va bir nafar o‘qituvchi o‘rtasida yakka tartibda, maxsus jadval asosida o‘tkaziladigan onlayn mashg‘ulotlar formati.

2.6. **Prepayment (Oldindan to‘lov)** – Oylik darslar sikli boshlanishidan avval, har oyning 5 sanasigacha yoki birinchi bepul (sinov) darsi o‘tilgan vaqtdan boshlab 24 soat ichida amalga oshirilishi shart bo‘lgan to‘lov miqdori.

2.7. **Darslar sikli** – Bir kalendar oyi davomida o‘tilishi belgilangan, kalendar kunlari va rasmiy bayramlardan kelib chiqib 11 (o‘n bir) tadan 13 (o‘n uch) tagacha bo‘lgan onlayn darslar jamlanmasi.

2.8. **O‘quv materiallari** – Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan Foydalanuvchiga taqdim etiladigan video darslar, PDF qo‘llanmalar, testlar, topshiriqlar va boshqa mualliflik intellektual mulk ob‘ektlari.

2.9. **Birinchi bepul dars** – Yangi Foydalanuvchiga onlayn maktab tizimi va o‘qitish metodikasi bilan tanishish uchun taqdim etiladigan, haq to‘lanmaydigan dastlabki sinov mashg‘uloti.

3-BOB. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. **Акцент** — полное и безоговорочное принятие Пользователем условий настоящей Оферты. Регистрация на Платформе или осуществление первоначальной оплаты услуг считается акцептом.

2.2. **Онлайн-платформа (Платформа)** — программное обеспечение, веб-сайт, мобильное приложение или системы видеоконференцсвязи (Zoom, Google Meet, Telegram и т. д.), используемые Исполнителем для оказания услуг дистанционного обучения.

2.3. **Личный кабинет** — закрытый раздел Платформы, выделенный для Пользователя, обеспечивающий доступ к его персональным данным, расписанию занятий и учебным материалам.

2.4. **Групповые занятия** — формат онлайн-занятий, проводимых на основе учебного плана с одновременным участием до 12 (двенадцать) Пользователей.

2.5. **Индивидуальные занятия** — формат онлайн-занятий, проводимых индивидуально между одним Пользователем и одним преподавателем по специальному расписанию.

2.6. **Prepayment (Предоплата)** — сумма платежа, которая должна быть произведена до начала ежемесячного цикла занятий, до 5-го числа каждого месяца или в течение 24 часов с момента проведения первого бесплатного (пробного) урока.

2.7. **Цикл занятий** — совокупность онлайн-занятий, запланированных к проведению в течение одного календарного месяца, составляющая от 11 (одиннадцати) до 13 (тринадцати) уроков, в зависимости от календарных дней и официальных праздников.

2.8. **Учебные материалы** — видеоуроки, PDF-пособия, тесты, задания и другие объекты авторской интеллектуальной собственности, предоставляемые Исполнителем Пользователю.

2.9. **Первый бесплатный урок** — начальное неоплачиваемое пробное занятие, предоставляемое новому Пользователю для ознакомления с системой онлайн-школы и методикой обучения.

ГЛАВА 3. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

3.1. Xizmat ko'rsatuvchi Foydalanuvchining topshirig'iga binoan, ushbu Ofertada belgilangan shartlar, onlayn ta'lim dasturi va metodikasi asosida masofaviy Ingliz tili kurslarini (Xizmatlarni) taqdim etish majburiyatini oladi, Foydalanuvchi esa ko'rsatilgan xizmatlar uchun ushbu Ofertada belgilangan tartibda va miqdorda haq to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Onlayn ta'lim xizmatlari masofaviy aloqa vositalari (Platforma) yordamida, guruhda (12 nafargacha foydalanuvchi) yoki individual tartibda amalga oshiriladi.

3.3. Voyaga yetmagan shaxslar (18 yoshga to'lmaganlar) nomidan ushbu Ofertani ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari akseptlashi (to'lovni amalga oshirishi) mumkin. Bunday holatda ota-onalar Foydalanuvchi sifatida barcha huquqiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar.

3.4. Xizmatlar hajmi va davomiyligi Foydalanuvchi tomonidan tanlangan kurs turiga qarab belgilanadi. Bir oylik darslar sikli 11 tadan 13 tagacha onlayn mashg'ulotni o'z ichiga oladi.

3.5. Xizmat ko'rsatuvchi o'quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida o'quv rejasini, metodikani va o'qituvchilarni mustaqil ravishda belgilash hamda o'zgartirish huquqiga ega.

3.6. Xizmatlar ko'rsatish joyi bo'lib Xizmat ko'rsatuvchining yuridik manzili emas, balki onlayn platforma (virtual muhit) hisoblanadi.

4-BOB. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Xizmat ko'rsatuvchining huquqlari:

4.1.1. Foydalanuvchi tomonidan to'lovlar har oyning 5-sanasiga qadar amalga oshirilmagan taqdirda, darslarga va o'quv materiallariga (Shaxsiy kabinetga) kirishini bir tomonlama cheklash.

4.1.2. O'quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchini Foydalanuvchining roziligisiz almashtirish.

4.1.3. Foydalanuvchi tomonidan dars jarayonida odo-axloq normalari buzilsa, o'qituvchi yoki boshqa o'quvchilar haqorat qilinsa, shartnomani bir tomonlama bekor qilish va uni darslardan chetlashtirish.

3.1. Исполнитель по поручению Пользователя обязуется оказать услуги по дистанционным курсам английского языка (Услуги) на условиях, определенных в настоящей Оферте, на основе программы и методики онлайн-обучения, а Пользователь обязуется оплатить оказанные услуги в порядке и размере, установленных настоящей Офертой.

3.2. Услуги онлайн-обучения осуществляются с помощью средств дистанционной связи (Платформы) в групповом (до 12 пользователей) или индивидуальном порядке.

3.3. От имени несовершеннолетних лиц (не достигших 18 лет) акцептовать настоящую Оферту (осуществлять оплату) могут их родители или законные представители. В таком случае родители принимают на себя всю юридическую ответственность в качестве Пользователя.

3.4. Объем и продолжительность Услуг определяются в зависимости от типа курса, выбранного Пользователем. Один месячный цикл занятий включает в себя от 11 до 13 онлайн-занятий.

3.5. Исполнитель в целях эффективной организации учебного процесса имеет право самостоятельно определять и изменять учебный план, методику и преподавателей.

3.6. Местом оказания услуг считается не юридический адрес Исполнителя, а онлайн-платформа (виртуальная среда).

ГЛАВА 4. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

4.1. Права Исполнителя:

4.1.1. В одностороннем порядке ограничивать доступ к занятиям и учебным материалам (Личному кабинету) в случае, если оплата не произведена Пользователем до 5-го числа каждого месяца.

4.1.2. Заменять преподавателя без согласия Пользователя в целях повышения эффективности учебного процесса.

4.1.3. В одностороннем порядке расторгнуть договор и отстранить Пользователя от занятий в случае нарушения им норм этики и поведения, а также оскорбления преподавателя или других учеников во время учебного процесса.

4.1.4. Onlayn darslarni sifatli o'tkazish uchun texnik reglamentlar va standartlarni mustaqil belgilash.

4.1.5. Foydalanuvchi o'zining o'quv natijalari (IELTS ballari va b.), shuningdek dars jarayonidagi video/audio yozuvlaridan marketing maqsadlarida foydalanishga rozilik beradi.

4.2. Xizmat ko'rsatuvchining majburiyatlari:

4.2.1. Foydalanuvchiga ushbu Ofertada belgilangan formatda (guruh yoki individual) sifatli onlayn ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.

4.2.2. O'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan onlayn materiallar va platformaga kirish imkoniyatini ta'minlash.

4.2.3. Dars jadvali yoki o'qituvchi o'zgargan taqdirda, Foydalanuvchini platforma yoki aloqa vositalari orqali oldindan ogohlantirish.

4.3. Foydalanuvchining huquqlari:

4.3.1. Tasdiqlangan dars jadvaliga muvofiq onlayn mashg'ulotlarda to'liq ishtirok etish.

4.3.2. O'quv jarayoni, o'quv materiallari va o'zlashtirish darajasi bo'yicha Xizmat ko'rsatuvchi xodimlaridan ma'lumot va maslahatlar olish.

4.3.3. Birinchi bepul darsdan so'ng kursni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish.

4.4. Foydalanuvchining majburiyatlari:

4.4.1. Xizmatlar uchun to'lovni har oyning 5-sanasiga qadar to'liq miqdorda amalga oshirish.

4.4.2. Xizmat ko'rsatuvchining intellektual mulki hisoblangan o'quv materiallarini (video, PDF, testlar) uchinchi shaxslarga tarqatmaslik, nusxalarni va sotmaslik.

4.4.3. Foydalanuvchi mashg'ulot uchun zarur bo'lgan sifatli internet aloqasi va texnik vositalarni ta'minlashga mas'uldir.

4.4.4. Kursni to'xtatish niyati bo'lsa, bu haqda Xizmat ko'rsatuvchini kamida 1 (bir) kun oldin ogohlantirish.

4.1.4. Самостоятельно устанавливать технические регламенты и стандарты для обеспечения высокого качества проведения онлайн-уроков.

4.1.5. Пользователь дает свое согласие на использование его учебных результатов (баллы IELTS и др.), а также видео- и аудиозаписей процесса занятий в маркетинговых целях Исполнителя.

4.2. Обязанности Исполнителя:

4.2.1. Оказывать Пользователю качественные услуги онлайн-обучения в формате (групповом или индивидуальном), установленном настоящей Офертой.

4.2.2. Обеспечивать доступ к онлайн-материалам и платформе, необходимым для учебного процесса.

4.2.3. В случае изменения расписания занятий или смены преподавателя заранее уведомлять об этом Пользователя через платформу или средства связи.

4.3. Права Пользователя:

4.3.1. Принимать полное участие в онлайн-занятиях в соответствии с утвержденным графиком занятий.

4.3.2. Получать от сотрудников Исполнителя информацию и консультации относительно учебного процесса, учебных материалов и уровня успеваемости.

4.3.3. Самостоятельно принимать решение о продолжении или прекращении обучения после прохождения первого бесплатного урока.

4.4. Обязанности Пользователя:

4.4.1. Осуществлять оплату услуг в полном объеме до 5-го числа каждого месяца.

4.4.2. Не распространять, не копировать и не продавать третьим лицам учебные материалы (видео, PDF, тесты), являющиеся интеллектуальной собственностью Исполнителя.

4.4.3. Пользователь несет ответственность за обеспечение качественной интернет-связи и технических средств, необходимых для участия в занятиях.

4.4.4. При намерении прекратить обучение уведомить об этом Исполнителя как минимум за 1 (один) день до принятия решения.

5-BOB. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1. Xizmatlar narxi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so'm)da belgilanadi. Kursning bir oylik (darslar sikli) qiymati Foydalanuvchi tanlagan formatga ko'ra quyidagicha hisoblanadi:

-Guruh darslari (12 nafargacha foydalanuvchi): 1 (bir) mashg'ulot narxi — 47 500 (qirq yetti ming besh yuz so'm) so'm.

-Individual darslar: 1 (bir) mashg'ulot narxi — 200 000 (ikki yuz ming) so'm.

5.2. Bir kalendar oyidagi darslar soni kalendar sikli va rasmiy bayram kunlaridan kelib chiqib 11 tadan 13 tagacha bo'lishi mumkin. To'lovlar oylik darslar sonidan qat'i nazar, belgilangan tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

5.3. To'lov muddati: Foydalanuvchi har oyning 5-sanasiga qadar joriy oy uchun 100% oldindan yoki yangi ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchilar uchun birinchi bepul (sinov) darsi o'tilgan vaqtdan boshlab 24 soat ichida to'lovni amalga oshirish muddati belgilanadi. Agar to'lov ushbu muddatda amalga oshirilmasa, Maktab o'quvchi uchun joyni saqlab qolishni kafolatlamaydi.

5.4. Imtiyozlar va chegirmalar:

5.4.1. Birinchi bepul dars: Yangi Foydalanuvchilar uchun birinchi dars mutlaqo bepul. Agarda Foydalanuvchi kursni davom ettirish istagini bildirsa, to'lov keyingi darsdan boshlab hisoblanadi.

5.4.2. Oilaviy chegirma: Bitta oiladan (aka-uka, opa-singil) ikki yoki undan ortiq shaxs bir vaqtda ta'lim olsa, ularning har biriga oylik umumiy to'lovdan 70 000 (yetmish ming so'm) so'm miqdorida chegirma taqdim etiladi.

5.5. Xizmatni to'xtatish va mablag'larni qaytarish:

5.5.1. Foydalanuvchi o'qishni to'xtatish niyati haqida Xizmat ko'rsatuvchini kamida 1 (bir) kun oldin ogohlantirishi shart.

5.5.2. Ogohlantirish belgilangan muddatda (1 kun oldin) berilgan taqdirda, o'tilmagan darslar uchun qolgan mablag'lar Foydalanuvchiga to'liq qaytarib beriladi.

ГЛАВА 5. СТОИМОСТЬ УСЛУГ И ПОРЯДОК РАСЧЕТОВ

5.1. Стоимость услуг устанавливается в национальной валюте Республики Узбекистан (сум). Стоимость месячного курса (цикла занятий) рассчитывается в зависимости от выбранного Пользователем формата следующим образом:

-Групповые занятия (до 12 пользователей): стоимость 1 (одного) занятия — 47 500 (сорок семь тысяч пятьсот сум) сумов.

-Индивидуальные занятия: стоимость 1 (одного) занятия — 200 000 (двести тысяч) сумов.

5.2. Количество занятий в одном календарном месяце может составлять от 11 до 13 в зависимости от календарного цикла и официальных праздничных дней. Оплата производится по установленному тарифу независимо от фактического количества занятий в конкретном месяце.

5.3. Срок оплаты: Устанавливается срок осуществления 100% предоплаты за текущий месяц до 5-го числа каждого месяца, а для вновь зарегистрированных Пользователей — в течение 24 часов с момента проведения первого бесплатного (пробного) урока. В случае неосуществления оплаты в указанный срок, Школа не гарантирует сохранение места за учеником.

5.4. Льготы и скидки:

5.4.1. Первый бесплатный урок: Первый урок для новых Пользователей является абсолютно бесплатным. Если Пользователь выразит желание продолжить курс, оплата рассчитывается начиная со следующего занятия. 5.4.2. Семейная скидка: При одновременном обучении двух и более лиц из одной семьи (братья, сестры), каждому из них предоставляется скидка в размере 70 000 (семьдесят тысяч сум) сумов от суммы общей ежемесячной оплаты.

5.5. Прекращение услуги и возврат денежных средств: 5.5.1. Пользователь обязан уведомить Исполнителя о своем намерении прекратить обучение не менее чем за 1 (один) день. 5.5.2. В случае предоставления уведомления в установленный срок (за 1 день), денежные средства за непроведенные занятия в остатке полностью возвращаются Пользователю.

5.5.3. Agarda Foydalanuvchi o'qishni davom ettirish niyatida bo'lsa, qolgan mablag'lar keyingi oy (darslar sikli) uchun o'tkazilishi (depozit sifatida qolishi) mumkin.

5.6. To'lovlar naqd pulsiz shaklda (bank kartalari, to'lov ilovalari yoki bank o'tkazmalari orqali) amalga oshiriladi. To'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi chek yoki skrinshot platforma operatoriga taqdim etilishi lozim.

5.7. Yakka tartibdagi mashg'ulotni bekor qilish yoki boshqa vaqtga ko'chirish haqida Foydalanuvchi kamida 24 soat oldin Maktab ma'muriyatini ogohlantirishi shart.

5.7.1. Belgilangan muddatdan kechikib berilgan ogohlantirish yoki mashg'ulotga ogohlantirishsiz kelmaslik holatlarida dars o'tilgan hisoblanadi va to'lov qaytarilmaydi.

5.7.2. Faqatgina uzrli sabablar (Foydalanuvchining kasalligi — tibbiy ma'lumotnoma bilan tasdiqlanganda) mavjud bo'lganda darsni boshqa vaqtga ko'chirishga yo'l qo'yiladi.

6-BOB. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu Oferta shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Xizmat ko'rsatuvchining javobgarligi cheklanishi:

6.2.1. Xizmat ko'rsatuvchi Foydalanuvchining sub'ektiv bahosiga (kurs yoqmasi, natija kutganidek bo'lmadi va h.k.) ko'ra javobgar hisoblanmaydi, agar darslar o'quv dasturiga muvofiq o'tilgan bo'lsa.

6.2.2. Foydalanuvchi darslarni muntazam qoldirsa, uy vazifalarini bajarmasa yoki o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qilmasa, Xizmat ko'rsatuvchi ta'lim natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2.3. Xizmat ko'rsatuvchi Foydalanuvchining internet aloqasi pastligi, texnik qurilmalari (kompyuter, telefon) nosozligi yoki platformaga ulanishdagi shaxsiy texnik muammolari uchun javobgar emas.

5.5.3. Если Пользователь намерен продолжить обучение, оставшиеся средства могут быть перенесены (сохранены в качестве депозита) на следующий месяц (цикл занятий).

5.6. Платежи осуществляются в безналичной форме (через банковские карты, платежные приложения или банковские переводы). Чек или скриншот, подтверждающий осуществление платежа, должен быть представлен оператору платформы.

5.7. Пользователь обязан уведомить администрацию Школы как минимум за 24 часа об отмене или переносе индивидуального занятия на другое время.

5.7.1. В случаях уведомления с нарушением установленного срока или неявки на занятие без уведомления, урок считается проведенным, и оплата не возвращается.

5.7.2. Перенос занятия на другое время допускается только при наличии уважительных причин (болезнь Пользователя, подтвержденная медицинской справкой).

ГЛАВА 6. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

6.1. Стороны несут ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение условий настоящей Оферты в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

6.2. Ограничение ответственности Исполнителя:

6.2.1. Исполнитель не несет ответственности за субъективную оценку Пользователя (курс не понравился, результат не оправдал ожиданий и т. д.), если занятия проводились в соответствии с учебной программой.

6.2.2. Исполнитель не несет ответственности за результаты обучения, если Пользователь систематически пропускает занятия, не выполняет домашние задания или не следует указаниям преподавателя.

6.2.3. Исполнитель не несет ответственности за низкое качество интернет-соединения Пользователя, неисправность технических устройств (компьютер, телефон) или личные технические проблемы при подключении к платформе.

6.2.4. Global internet provayderlari yoki onlayn platforma serverlaridagi texnik uzilishlar natijasida dars o'tilmagan taqdirda, Xizmat ko'rsatuvchi ushbu darsni boshqa vaqtga ko'chirishi yoki keyingi darslar siklida qoplab berishi shart. Bu holat Xizmat ko'rsatuvchining aybi bilan sodir etilgan qonunbuzarlik hisoblanmaydi.

6.3. Foydalanuvchining javobgarligi:

6.3.1. Foydalanuvchi o'zining Shaxsiy kabinetiga yoki darslarga kirish ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berganligi natijasida yuzaga kelgan har qanday zarar uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

6.3.2. Intellektual mulkni buzganlik uchun: Foydalanuvchi kurs materiallarini (video, PDF, testlar) tarqatganligi, nusxalaganligi yoki ochiq manbalarga joylashtirganligi aniqlansa, u Xizmat ko'rsatuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'liq qoplashi shart. Bunda shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.

6.3.3. Foydalanuvchi onlayn dars jarayonida boshqa ishtirokchilarning huquqlarini buzsa (haqorat qilish, darsga xalaqit berish), u darsdan chetlashtiriladi va ushbu darslar uchun to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

6.4. Ofertani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo Xizmat ko'rsatuvchi joylashgan hududdagi tegishli sudga ko'rib chiqiladi.

7-BOB. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Tomonlar ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlari natijasida sodir bo'lsa.

7.2. Yengib bo'lmas kuch holatlariga quyidagilar kiradi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

-Tabiiy ofatlar: zilzila, suv toshqini, yong'in, bo'ron va boshqa gidrometeorologik hodisalar;

-Ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar: harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, terrorchilik harakatlari;

6.2.4. В случае непроведения занятия по причине технических сбоев на стороне глобальных интернет-провайдеров или серверов онлайн-платформ, Исполнитель обязан перенести данное занятие на другое время или компенсировать его в следующем цикле занятий. Данная ситуация не считается нарушением, совершенным по вине Исполнителя.

6.3. Ответственность Пользователя:

6.3.1. Пользователь несет личную ответственность за любой ущерб, возникший в результате передачи данных для доступа к своему Личному кабинету или занятиям третьим лицам.

6.3.2. За нарушение интеллектуальной собственности: В случае выявления фактов распространения, копирования или размещения материалов курса (видео, PDF, тесты) в открытых источниках Пользователем, он обязан полностью возместить Исполнителю причиненный материальный и моральный ущерб. В таком случае договор расторгается в одностороннем порядке.

6.3.3. Если Пользователь в процессе онлайн-урока нарушает права других участников (оскорбления, создание помех проведению занятия), он отстраняется от занятий, и денежные средства, уплаченные за данные занятия, возврату не подлежат.

6.4. Все споры, возникающие в процессе исполнения Оферты, разрешаются путем переговоров. В случае недостижения согласия, спор подлежит рассмотрению в соответствующем суде по месту нахождения Исполнителя.

ГЛАВА 7. ОБСТОЯТЕЛЬСТВА НЕПРЕОДОЛИМОЙ СИЛЫ (ФОРС-МАЖОР)

7.1. Стороны освобождаются от ответственности за частичное или полное неисполнение обязательств по настоящей Оферте, если это явилось следствием обстоятельств непреодолимой силы (форс-мажора).

7.2. К обстоятельствам непреодолимой силы относятся (но не ограничиваются ими):

-Стихийные бедствия: землетрясение, наводнение, пожар, ураган и другие гидрометеорологические явления;

-Социально-политические ситуации: военные действия, массовые беспорядки, забастовки, террористические акты;

-Davlat organlarining qarorlari: eksport yoki importni taqiqlash, valyuta cheklovlari, onlayn ta'lim faoliyatini vaqtincha to'xtatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi;

-Texnologik cheklovlar: davlat miqyosida internet aloqasining uzilishi yoki cheklanishi (blokirovka qilinishi), global aloqa tizimlaridagi nosozliklar.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni imkon qadar tezroq (odatan 3 ish kuni ichida) onlayn platforma, elektron pochta yoki boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilishi shart.

7.4. Fors-major holatlari amal qilayotgan davrda shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati ushbu holatlar davom etgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

7.5. Agar fors-major holatlari 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq davom etsa, Tomonlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirgan holda shartnomani bekor qilishga haqlidirlar.

8-BOB. SHARTNOMANI BIR TOMONLAMA BEKOR QILISH VA KIRISHNI CHEKLASH

8.1. Xizmat ko'rsatuvchi quyidagi hollarda Foydalanuvchining platformaga (onlayn darslar va o'quv materiallariga) kirishini bir tomonlama cheklash yoki ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega:

8.1.1. Foydalanuvchi tomonidan ushbu ofertada belgilangan majburiyatlarning buzilishi, shu jumladan, o'quv materiallaridan Xizmat ko'rsatuvchining ruxsatisiz tijorat maqsadlarida foydalanish yoki ularni tarqatish.

8.1.2. Ro'yxatdan o'tish yoki to'lovni tasdiqlash paytida Foydalanuvchi o'zi haqida qasddan noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etishi.

8.1.3. Platformaning (veb-sayt, ilova yoki guruhlar) normal ishlashini buzishga qaratilgan harakatlar, jumladan, ruxsatsiz kirishga urinish, viruslarni tarqatish yoki xakerlik hujumlarini amalga oshirish.

8.1.4. Onlayn darslar jarayonida o'qituvchi yoki boshqa foydalanuvchilarning huquq va manfaatlarini buzuvchi, haqoratli yoki yolg'on ma'lumotlarni tarqatish.

-Решения государственных органов: запрет экспорта или импорта, валютные ограничения, принятие нормативно-правовых актов, временно приостанавливающих деятельность в сфере онлайн-образования;

-Технологические ограничения: отключение или ограничение (блокировка) интернет-связи на государственном уровне, сбои в глобальных системах связи.

7.3. Сторона, для которой возникли обстоятельства непреодолимой силы, обязана как можно скорее (как правило, в течение 3 рабочих дней) уведомить об этом другую Сторону через онлайн-платформу, электронную почту или другие средства связи.

7.4. В период действия обстоятельств непреодолимой силы срок исполнения обязательств по договору откладывается соразмерно времени, в течение которого действуют эти обстоятельства.

7.5. Если обстоятельства непреодолимой силы длятся более 30 (тридцати) календарных дней, Стороны имеют право расторгнуть договор, произведя взаимные расчеты

ГЛАВА 8. ОДНОСТОРОННЕЕ РАСТОРЖЕНИЕ ДОГОВОРА И ОГРАНИЧЕНИЕ ДОСТУПА

8.1. Исполнитель имеет право в одностороннем порядке ограничить доступ Пользователя к платформе (онлайн-урокам и учебным материалам) или расторгнуть настоящий договор в следующих случаях:

8.1.1. Нарушение Пользователем обязательств, установленных настоящей Офертой, включая использование учебных материалов в коммерческих целях без разрешения Исполнителя или их распространение.

8.1.2. Предоставление Пользователем заведомо ложных или неполных сведений о себе при регистрации или подтверждении оплаты.

8.1.3. Действия, направленные на нарушение нормального функционирования Платформы (веб-сайта, приложения или групп), включая попытки несанкционированного доступа, распространение вирусов или совершение хакерских атак.

8.1.4. Распространение в процессе онлайн-уроков оскорбительной или ложной информации, нарушающей права и интересы преподавателя или других пользователей.

8.1.5. Internet tarmog'idagi umumiy xatti-harakatlar qoidalarini buzadigan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlangan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

8.2. Foydalanuvchining platformaga kirishi cheklangan taqdirda, Xizmat ko'rsatuvchi cheklash sabablarini ko'rsatgan holda Foydalanuvchini platforma ichidagi xabarnoma yoki aloqa vositalari orqali xabardor qiladi.

8.3. Foydalanuvchi istalgan vaqtda Xizmat ko'rsatuvchi xizmatlaridan voz kechish huquqiga ega, bu esa ushbu shartnomani bekor qilish bilan barobardir.

8.4. Shartnoma Foydalanuvchi tomonidan bekor qilingan taqdirda, u o'z qarori haqida Xizmat ko'rsatuvchini kamida 1 (bir) kun oldin xabardor qilishi shart. Bunday holda o'zaro hisob-kitoblar ushbu Ofertaning 5.5-bandiga muvofiq (o'tilmagan darslar pulini qaytarish orqali) amalga oshiriladi.

9-BOB. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH

9.1. Foydalanuvchi Xizmat ko'rsatuvchiga platformada ro'yxatdan o'tish va undan foydalanish jarayonida taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini, jumladan:

-Ismi va familiyasi;

-Tug'ilgan sanasi;

-Elektron pochta manzili;

-Aloqa telefoni;

-Face ID (shaxsni tasdiqlash uchun foto/video ma'lumotlar);

-Ingliz tilini bilish darajasi va ta'limga oid boshqa ma'lumotlarini qayta ishlash hamda foydalanish uchun o'z roziligini beradi.

9.2. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashdan maqsad:

-Platformadagi onlayn darslar va o'quv materiallariga kirishni ta'minlash;

8.1.5. Совершение иных действий, нарушающих общие правила поведения в сети Интернет или запрещенных законодательством Республики Узбекистан.

8.2. В случае ограничения доступа Пользователя к платформе Исполнитель уведомляет Пользователя через внутреннее уведомление на платформе или средства связи с указанием причин ограничения.

8.3. Пользователь имеет право в любое время отказаться от услуг Исполнителя, что равносильно расторжению настоящего договора.

8.4. В случае расторжения договора Пользователем он обязан уведомить Исполнителя о своем решении не менее чем за 1 (один) день. В таком случае взаимные расчеты производятся в соответствии с пунктом 5.5 настоящей Оферты (путем возврата денежных средств за непроведенные занятия).

ГЛАВА 9. ОБРАБОТКА ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ

9.1. Пользователь дает свое согласие Исполнителю на обработку и использование персональных данных, предоставленных в процессе регистрации и использования платформы, включая:

-Имя и фамилия;

-Дата рождения;

-Адрес электронной почты;

-Контактный телефон;

-Face ID (фото/видео данные для подтверждения личности);

-Уровень владения английским языком и иные сведения, относящиеся к обучению.

9.2. Цели обработки персональных данных:

-Обеспечение доступа к онлайн-урокам и учебным материалам на платформе;

-Foydalanuvchini yangiliklar, dars jadvalidagi o'zgarishlar va aksiyalar haqida xabardor qilish;

-O'quv jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish;

-Platformada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va Foydalanuvchi bilan qayta aloqani o'rnatishdir.

9.3. Xizmat ko'rsatuvchi Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlash va uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Quyidagi holatlar bundan mustasno:

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar talabi va h.k.);

-Foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini e'lon qilishga yoki uchinchi shaxslarga berishga to'g'ridan-to'g'ri rozilik bergan hollar.

9.4. Foydalanuvchi ushbu Ofertani akseptlash orqali o'zining shaxsiy ma'lumotlari Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan cheklanmagan muddatda (yoki hamkorlik tugagunga qadar) qayta ishlanishga rozilik bildiradi.

9.5. Xizmat ko'rsatuvchi ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanadi va ularning ruxsatsiz tarqalib ketishining oldini olish uchun barcha choralarni ko'radi.

10-BOB. OFERTA SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI

10.1. Ushbu Oferta shartnomasi Foydalanuvchi tomonidan akseptlangan (ro'yxatdan o'tilgan yoki to'lov qilingan) paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

10.2. Onlayn ingliz tili kurslari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar yakunlangandan so'ng, Tomonlar o'rtasida xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi (Akt) tuzilmaydi va imzolanishi talab etilmaydi.

10.3. Xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlash tartibi:

10.3.1. Xizmatlar har bir dars o'tilishi yoki o'quv materiallariga kirish imkoniyati berilishi bilan amalda ko'rsatilgan hisoblanadi.

-Информирование Пользователя о новостях, изменениях в расписании занятий и акциях;

-Мониторинг учебного процесса и анализ результатов;

-Улучшение качества оказываемых на платформе услуг и установление обратной связи с Пользователем.

9.3. Исполнитель обязуется соблюдать конфиденциальность персональных данных Пользователя и не разглашать их третьим лицам. За исключением следующих случаев:

-случаи, предусмотренные действующим законодательством Республики Узбекистан (требование правоохранительных органов и т. д.);

-случаи, когда Пользователь дал прямое согласие на публикацию своих данных или их передачу третьим лицам.

9.4. Акцептуя настоящую Оферту, Пользователь выражает согласие на обработку его персональных данных Исполнителем в течение неограниченного срока (или до завершения сотрудничества).

9.5. Исполнитель использует современные технические средства для обеспечения безопасности данных и принимает все меры для предотвращения их несанкционированного распространения.

ГЛАВА 10. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА ОФЕРТЫ И ПОРЯДОК ПРИЕМКИ-ПЕРЕДАЧИ УСЛУГ

10.1. Настоящий договор Оферты вступает в силу с момента его акцепта Пользователем (регистрации или совершения оплаты) и действует до полного исполнения Сторонами своих обязательств.

10.2. По завершении оказания услуг по дистанционным курсам английского языка акт приема-передачи услуг (Акт) между Сторонами не составляется и его подписание не требуется.

10.3. Порядок подтверждения факта оказания услуг:

10.3.1. Услуги считаются фактически оказанными по факту проведения каждого занятия или предоставления доступа к учебным материалам.

10.3.1. Agar Foydalanuvchi har bir dars o‘tilgan yoki tegishli darslar sikli (oy) yakunlangan vaqtdan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida Xizmat ko‘rsatuvchiga xizmat sifati yuzasidan yozma ravishda asoslantirilgan e‘tiroz bildirmasa, xizmatlar Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan to‘liq, siflatli va Foydalanuvchi tomonidan hech qanday e‘tirozlarsiz qabul qilingan hisoblanadi.

10.4. Ushbu Ommaviy oferta cheklanmagan muddatga tuziladi. Xizmat ko‘rsatuvchi ushbu Ofertani istalgan vaqtda bekor qilish huquqiga ega, bu haqda platformada yoki aloqa kanallari orqali e‘lon beriladi. Oferta bekor qilingan taqdirda ham, to‘lovi amalga oshirilgan darslar oxirigacha ko‘rsatiladi yoki puli qaytariladi.

10.5. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi yoki bekor qilinishi Tomonlarni uni bajarish jarayonida yo‘l qo‘yilgan buzilishlar va intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha javobgarlikdan ozod etmaydi.

11-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur Ommaviy oferta “**BANANA SCHOOL**” MChJ tomonidan e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va cheklanmagan muddatga amal qiladi.

11.2. Xizmat ko‘rsatuvchi ushbu Oferta shartlarini Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan istalgan vaqtda bir tomonlama o‘zgartirish huquqiga ega. Ofertaning yangi tahriri platformada yoki Xizmat ko‘rsatuvchining rasmiy kanallarida e‘lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi.

11.3. Foydalanuvchi Oferta matniga kiritilgan o‘zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borish majburiyatini oladi. Shartlar o‘zgargandan keyin xizmatlardan foydalanishni davom ettirish Foydalanuvchining yangi shartlarga roziligini anglatadi.

11.4. Agar ushbu Ofertaning biror-bir bandi qonunchilik o‘zgarishi sababli o‘z kuchini yo‘qotsa yoki haqiqiy emas deb topilsa, bu Ofertaning qolgan bandlarining haqiqiylikiga ta‘sir qilmaydi.

11.5. Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan barcha holatlar bo‘yicha Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

10.3.1. Если Пользователь в течение 3 (трех) календарных дней с момента проведения каждого занятия или завершения соответствующего цикла занятий (месяца) не представит Исполнителю обоснованную письменную претензию относительно качества услуг, услуги считаются оказанными Исполнителем в полном объеме, качественно и принятыми Пользователем без каких-либо претензий.

10.4. Настоящая Публичная oferta заключается на неопределенный срок. Исполнитель имеет право аннулировать настоящую Ofertу в любое время, о чем делается объявление на платформе или через официальные каналы связи. В случае аннулирования Ofertы оплаченные занятия проводятся до конца либо осуществляется возврат денежных средств.

10.5. Истечение срока действия или расторжение договора не освобождает Стороны от ответственности за нарушения, допущенные в процессе его исполнения, а также от ответственности по защите интеллектуальной собственности.

ГЛАВА 11. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ

11.1. Настоящая Публичная oferta вступает в силу с момента ее публикации ООО «BANANA SCHOOL» и действует в течение неограниченного срока.

11.2. Исполнитель имеет право в любое время в одностороннем порядке изменять условия настоящей Ofertы без предварительного уведомления Пользователя. Новая редакция Ofertы считается вступившей в силу с момента ее публикации на платформе или в официальных каналах Исполнителя.

11.3. Пользователь обязуется самостоятельно отслеживать изменения, внесенные в текст Ofertы. Продолжение использования услуг после изменения условий означает согласие Пользователя с новыми условиями.

11.4. Если какой-либо пункт настоящей Ofertы утратит силу или будет признан недействительным вследствие изменения законодательства, это не влияет на действительность остальных пунктов Ofertы.

11.5. Во всех случаях, не предусмотренных настоящей Ofertой, Стороны руководствуются действующим Гражданским кодексом Республики Узбекистан, законами «Об электронной коммерции», «О защите прав потребителей» и иными нормативно-правовыми актами.

11.6. Mazkur Oferta o'zbek tilida tuzilgan bo'lib, u bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi sudlarida ko'rib chiqiladi.

12-BOB. JAMIYAT REKVIZITLARI

«BANANA SCHOOL» MChJ — 2026-yil 27-martda berilgan 3172812-sonli guvohnomaga asosan ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

- **Yuridik manzil:** Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek t., Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 262-uy.
- **STIR:** 312 910 284
- **IFUT:** 85590
- **Bank rekvizitlari:** АКБ "Invest Finance Bank" 20208000807433379001
- **Tel.:** +998979798808

Direktor: Islomkhujaev Lazizxon Shuhrat o'g'li

11.6. Настоящая Оферта составлена на узбекском языке, и все разногласия, связанные с ней, подлежат рассмотрению в судах Республики Узбекистан.

ГЛАВА 12. РЕКВИЗИТЫ ОБЩЕСТВА

ООО «BANANA SCHOOL» — юридическое лицо, оказывающее образовательные услуги на основании свидетельства № 3172812 от 27 марта 2026 года.

- **Юридический адрес:** г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский р-н, ул. Буюк Ипак Йули, д. 262.
- **ИНН:** 312 910 284
- **ОКЭД:** 85590
- **Банковские реквизиты:** АКБ "Invest Finance Bank" 20208000807433379001
- **Tel.:** +998979798808

Директор: Исломхужаев Лазизхон Шухратович